

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/10 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ismoilov Ubaydulla Mamat o'g'li

SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR

VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI 11-19

Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna

O'ZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA SANOATI RIVOJIDA D.P.ROZITNING O'RNI 20-24

Umarov Sardor Yakubovich

XX ASRNING OXIRI-XXI ASR BOSHIDA GERMANIYA DAVLAT MOLIYASI VA

BIRLASHTIRISHNING MOLIYAVIY OQIBATLARI..... 25-31

Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich

AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ

TOPONIMLAR 32-37

Olimov Nodirbek Anvarjon o'g'li

QO'QON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MA'LUMOTLAR

(“TARIXI SHOHRUXIY” ASARI MISOLIDA) 38-41

Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Daminova Mashhuraxon

DAVRIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI..... 42-45

Ahmedov Bahodir Ismailovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING

TARIXIY BOSQICHLARI 46-55

Ravshanov Mahmud

ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH MAHORAT: YECHIMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUV MASALALARI..... 56-59

Asadova Ra'no Baymanovna

O'ZBEKISTON VA HINDISTON O'RTASIDAGI ILM-FAN HAMKORLIGI TARIXI

VA ZAMONAVIY BOSQICHLARI 60-64

Qurbonova Marg'uba

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI EVOLYUTSIYASI

VA MILLIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

(1991–2025 YILLAR TAHLILI) 65-68

Kamolova Habiba Muhammadiyevna

SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODIY

INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI O'ZGARISHLAR 69-74

Ergashev Umar Kuziyevich

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI G'UZOR BEKLIGI AHOLISI

TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA) 75-79

Ergashev Akhror

THE FACTORS THAT HAVE LED TO INTERNAL CRISES IN PAKISTAN,

AND THE SUBSEQUENT STRENGTHENING OF THE MILITARY'S ROLE

IN THE COUNTRY'S POLITICAL LIFE 80-88

<i>Qurbonov Abbos Shonazarovich</i> SUN'YIY INTELLEKT YORDAMIDA ARXIV HUJJATLARINI TAHLIL QILISH: YANGI TARIXIY YONDASHUVLAR	89-93
<i>Esanova Nilufar</i> CHET EL INVESTITSİYALARINING O'ZBEKISTON SANOAT SIYOSATIDAGI O'RNI: XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	94-97
<i>Askarxodjayev Yaminxon Muxammedovich</i> "MAORIF VA O'QUTG'UCHI" JURNALI "MEHNAT MAKTABI NIMA DEMAK?" MAQOLASIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALIY TA'LIM G'OYASINING DASTLABKI NAZARIY ASOSLARI (1925-YIL, 1-SONI MISOLIDA)	98-105
<i>Ismatova Zulfizar</i> O'ZBEK MILLIY KIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI	106-114
<i>Abdualimova Durdona Shavkat qizi</i> G'AZNAVIYLAR QUDRATINING YEMIRILISH NUQTASI.....	115-125
<i>Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> YOSHLARNI IJTIMOYIY HIMOYA QILISH – TADQIQOTLARNING MUHIM YO'NALISHI	126-129
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> ILMIY RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARUVDA O'ZBEK AYOL OLIMALARINING ROLI	130-134
08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI	
<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	135-142
<i>Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li</i> MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	143-151
<i>Sharipova Gulchehra Farhod qizi</i> IMPROVING THE PRACTICAL MECHANISM OF EDUCATION QUALITY MANAGEMENT BASED ON FOREIGN EXPERIENCE: IN THE CASE OF JAPAN	152-157
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i> MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT QO'LLASH TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR	158-162
<i>Sharopov Nurmuhammad Bobirovich</i> DAVLAT SIYOSATI VA YASHIL IQTISODIYOT: SUBSIDİYALAR, SOLIQ VA RAG'BATLAR	163-166
<i>Ibragimov Nodir Nusriddinovich</i> AGRAR SEKTORNI INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA EKONOMETRIK PROGNOZLASH USHLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI	167-174

<i>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</i> CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINI OSHIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	175-179
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Raupova Ra'no Sohibovna</i> GLOBALASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH.....	180-184
<i>Mamayusupov Umidjon Kurbanovich</i> JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK VA PROGNOSTIK VAZIFALARI	185-189
<i>Ergashev Ozodbek Shavkatovich</i> YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	190-194
<i>Alimova Shaxnoza Xamidovna</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI TO'LAQONLI ISHTIROKI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	195-205
<i>Tolipov Baxtiyor</i> YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI	206-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI.....	212-218
<i>Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna</i> RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY ISHONCHNI AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMI	219-225
<i>Yekubova Mavluda Iskandarovna</i> RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV RATSIONALLIK	226-232
<i>Madraximov Atabek Abduraximovich</i> EKOLOGIK TARBIYA HAMDA BILIM – EKOLOGIK MADANIYAT POYDEVORI	233-238
<i>Рахматов Нуриддин Негкадамович</i> МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУСЕЙНА ВОИЗА КАШИФИ	239-243
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA SPIRTLILIKLARGA QIZIQISHNING IJTIMOYIY SABAB VA OQIBATLARI	244-247
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich, Saidov Shomahmud Azamat o'g'li</i> INSON FALSAFASI	248-252
<i>Baratova Madina Xasanovna</i> KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOYIY FAOLLIGINI TA'MINLASH: INDIVIDUAL VA IJTIMOYIY OMILLAR	253-259
<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY ADOLAT VA FAROVONLIK FALSAFASI: ETIK TAMOIYILLAR VA IJTIMOYIY NOMUTANOSIBLIKLAR TAHLILI	260-269
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> COSMIC UNITY AND MORAL CONSCIOUSNESS: REINTERPRETING FARGHANI'S COSMOLOGY THROUGH CHITTICK'S LENS	270-274

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Kaniyazova Jupargul Orinbayevna</i> THE RETROSPECTIVE PLOT IN THE SHORT NOVELS OF CH. AITMATOV	275-280
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СРАВНЕНИЯ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ, СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И МОРФОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЯХ (НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗОВ А. И. КУПРИНА)	281-285
<i>Sanaqulova Fayoz</i> REKLAMA MATNLARIDA METAFORA TURLARI VA YONDOSH HODISALAR	286-289
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> THE THEME OF EXILE AND ALIENATION IN BYRON'S POETRY	290-293
<i>Norqobilova Nigora Uralovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG'ISH SO'ZLARING LINGVOMADANIY SHARTLANISHI	294-298
<i>Ahmedova Fayyoz Rashidovna</i> O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY, RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI	299-306
<i>Elmuratova Zamira Khodjamuratovna</i> SOME PECULARITIES OF ENGLISH, KARAKALPAK AND TURKMEN PROVERBS ABOUT LABOR	307-310

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Sultanova Sabohat Alisherovna</i> FURTHER DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE FOR ASSESSMENT OF REGULATORY IMPACT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AS AN ELEMENT OF "SMART REGULATION"	311-317
<i>Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR	318-328
<i>Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	329-339
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI	340-346
<i>Leonid Khvan Borisovich, Zilola Gulimova</i> THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC ADMINISTRATION	347-353
<i>Normatova Shirin Abdalnabiyevna</i> XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR TAHLILI	354-362

<i>Каюмова Асаля Султномуродовна</i> ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	363-368
<i>Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi</i> KRIPTOAKTIVLARGA OID JINOYATLAR VA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ...	369-377
<i>Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li</i> VIRTUAL MULKNING HUQUQIY REJIMI: SUI GENERIS YONDASHUV	378-392
<i>Amonov Zavqiddin</i> ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI	393-400
<i>Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich</i> YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI	401-405
<i>Makhmudjanova Mokhirakhon</i> ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING GENDER EQUALITY	406-411
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ: ПОНЯТИЕ, ФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	412-418

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Utkirov Nusrat</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI- MODULLI YONDASHUVLAR	419-424
<i>Jamolova Shahlo Qobilovna</i> BO'LAJAK FIZIKA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH METODIKASI ("REAL GAZLAR. MOLEKULALARARO O'ZARO TA'SIR. REAL GAZLAR. VAN-DER-VAALS TENGLAMASI" MAVZU MISOLIDA)	425-428
<i>Rasulova Moxidil</i> TIBBIYOT TA'LIMI TIZIMIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O'ZLASHTIRISHDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING ASOSIY SABABLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI	429-438
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i> ANESTEZIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ENTRUSTABLE PROFESSIONAL ACTIVITIES (EPA) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARGA MALAKAVIY TA'LIM BERISH	439-445
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i> BO'LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PROBLEMALI VA LOYIHALI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI	446-449

Received: 20 October 2025
Accepted: 15 November 2025
Published: 30 November 2025

Article / Original Paper

FROM THE HISTORY OF THE POPULATION OF GUZOR PRINCIPALITY OF THE BUKHARA EMIRATE AT THE END OF THE XIX - BEGINNING OF THE XX CENTURY (AS AN EXAMPLE OF THE HARDURI ETHNOGRAPHIC GROUP)

Ergashev Umar Kuzyevich

Senior lecturer of the University of Economics and pedagogy

E-mail: umarergashev712@gmail.com

Abstract. It is analyzed that the ethnographic group called "Harduri" of the residents of Guzor principality of the Bukhara Emirate in the late XIX - early XX centuries consisting of a significant part of the local population of the principality, and comments are made about this Harduri ethnographic group. The article discusses some promising information on these issues.

Keywords: "Harduri", Karluk, Har Dara, Har Darai turk, "Kungirot", Har daurak, Boysuni, Machai, Vakhshivori, Sinachi, Ushori, Darbandi, Sairobi, Poshkhurti, Vandobi, Bilingvism.

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI G‘UZOR BEKLIgi AHOLISI TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA)

Ergashev Umar Kuzyevich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida Buxoro amirligi G‘uzor bekligi aholisining “harduri” deb ataluvchi etnografik guruhi beklidagi mahalliy aholining sezilarli bir qismini tashkil etganligi tahlil qilinib, ushbu harduri etnografik guruhi to‘g‘risida mulohazalar keltirilgan, shuningdek, ushbu masalalar bo‘yicha ayrim istiqbolli ma‘lumotlar muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: “Harduri”, Qarluq, Har Dara, Har Darai turk, “Qo‘ng‘irot”, Har daurak, Boysuni, Machayi, Vaxshivori, Sinachi, Ushori, Darbandi, Sayrobi, Poshxurti, Vandobi, Bilingvizm.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI10Y2025N12>

Buxoro amirligidagi ma‘muriy-hududiy birliklardan biri bo‘lmish G‘uzor bekligi aholisi amirlik davrida, xususan, XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida asosan o‘zbek va tojik tilli aholidan iborat bo‘lib, ular orasida “harduri” deb ataluvchi etnografik guruh beklidagi mahalliy aholining sezilarli bir qismini tashkil etgan. Ushbu etnografik guruh tarixiga murojaat qilish orqali G‘uzor bekligi o‘tmishi bilan bog‘liq bir qator masalalarga aniqlik kiritish mumkin bo‘lsa-da, bu mavzu hozirgacha yetarli darajada o‘rganilmaganligi sababli bu boradagi bahs-munozaralar haligacha davom etib kelmoqda.

Harduri etnografik guruhi bo‘yicha ma‘lumotlar asosan so‘nggi o‘rta asrlardagi Buxoro amirligi yozma manbalari va rus mualliflari qaydlarida u yoki bu darajada uchraydi, ular asosida ushbu aholi guruhi haqida muayyan tasavvurlarga ega bo‘lish mumkin. Harduri aholi guruhi bo‘yicha shu paytgacha maxsus tadqiqotlar olib borilmaganligi bois yozma manbalardagi ma‘lumotlarning mazmun-mohiyatidan yetarlicha xabardor bo‘lish qiyin. O‘tgan asrda va yaqin

yillarda O'rta Osiyo xalqlari etnografiyasi, ayniqsa, Janubiy O'zbekiston hududi aholisining etnik xususiyatlari va etnik tarkibi bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar orasida asosan M.Eshniyozov[1], B.X.Karmisheva[2], T.Nafasov[3], A.Doniyorov, O.Bo'riyev va A. Ashirovlar[4], A.Qayumov[5], S.Tursunov[6] va yana bir qator tadqiqotchilar birmuncha to'xtalib o'tishganiga ko'zimiz tushadi. Avvalo, shuni aytib o'tish kerak, ushbu tadqiqotchilarning ko'pchiligi asosan Surxon vohasi harduri aholisiga, qisman esa G'uzor va unga qo'shni hududlardagi aholi maskanlarida yashaydigan ushbu etnografik guruh masalasiga e'tibor qaratganlar. Kelingan xulosaga ko'ra, ular Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod, G'uzor tumanlarida yashab, asosan tojik va qisman o'zbek tilining qarluq lahjasida so'zlashadilar.

XIX asr oxiri – XX asr boshlari G'uzor bekligida yashagan harduri aholisi to'g'risidagi ma'lumotlar asosan Buxoro amirligi Qushbegi arxivi hujjatlari va XX asr boshida yashagan Muhammad Sodiqxo'ja Gulshaniyning "Ta'rixi Humoyun" asarida uchraydi. Jumladan, Qushbegi hujjatlarida G'uzor bekligining Afg'onbog' va Eskibog' amloliklarida 1 tadan Harduri nomli qishloq qayd etilgan[7:B.137]. Bundan tashqari, Qushbegi hujjatlarida Hisor bekligiga qarashli Har Dara, Har Darai turk degan qishloqlar uchraydi[8:B.137], ularning ayrimlari ushbu etnotoponim bilan aloqador bo'lishi mumkin. Chunki, birz quyida batafsilroq to'xtalib o'tiladiganidek G'uzor bekligiga qo'shni hududlarda – Boysun, Sherobod, Sariosiyoda Harduri deb nomlangan bir necha aholi maskanlari mavjud bo'lgan.

Gulshaniy G'uzor hardurilari haqida birmuncha keng ma'lumot berib o'tgan. Uning yozishicha, G'uzorga qarashli qishloqlarning bir qanchasida ikkita urug' ko'pchilikni tashkil etib, ular "qo'ng'iro't" va "harduri" deb atalgan[9:B.100]. Muallifga ko'ra, "qo'ng'iro't" urug'i qirq ming xonadondan, harduri urug'i esa yigirma ming xonadondan tashkil topgan bo'lib, qo'ng'iro'tlar o'zbek aholi, hardurilar esa tojik aholi hisoblanib, qo'ng'iro't urug'i vakillari qo'ychivon, hardurilar esa dehqonchilik bilan shug'ullanishgan[10:B.100]. Gulshaniyning G'uzor bekligi aholisini "Xuzor viloyati yetmish ming xonadondan iboratdir. Qirq ming xonadon qo'ng'iro't, yigirma ming xonadon harduri, o'n ming xonadon shahar ichi atrofidagi aholi viloyat aholisini tashkil etadi" yozishi[11:B.102] esa birmuncha mubolag'ali bo'lib, XX asr boshlarida beklilikda boshqa o'zbek urug'i vakillari yashaydigan bir qator qishloqlar mavjud bo'lgan.

Bir qator tadqiqotlarda harduri etnografik guruhiga nisbatan o'tmishda asosan ko'chmanchi bo'lgan, keyinchalik o'troqlashgan tojiklardir degan mazmundagi qarashlar keng yoyilgan. Biroq yozma manbalardagi ayrim ma'lumotlar G'uzordagi harduri aholisi vakillari asosan o'troq dehqon aholi bo'lganidan darak beradi. G'uzor bekligi aholisi orasida harduri guruhi vakillari ko'proq dehqonchilik qilganiga urg'u bergan Gulshaniyning yozishicha: "Tog'lik hududdagi soylar bo'yida unumdor joylar ko'p bo'lib, hardurilar dehqonchilikda nihoyatda mohirdirlar. Hardurilarning dehqonchilikdan boshqa shug'ullanadigan kasbning o'zi yo'q. Ushbu urug' vakillari orasida boy odamlar uchraydi"[12:B.101]. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, muallif keltirib o'tgan ushbu ma'lumotlar ham birmuncha mubolag'ali bo'lishi mumkin. Chunki G'uzor bekligining tabiiy geografik joylashuvi va harduri deb atalgan aholi guruhi vakillarining o'sha kezlarda asosan tog'lik hududlarda yashaganligidan kelib chiqilsa, ushbu aholi vakillarining ko'proq bog'dorchilik bilan shug'ullangan, ya'ni bu yerda sug'orma dehqonchilik emas, ko'proq lalmi dehqonchilik keng yoyilgan bo'lgan. Zero, Gulshaniyning o'zi ham ta'kidlab yozganidek, Xuzor tog'larida dehqonchilikka mos unumdor yerlar mavjud bo'lib, tog'dagi daralarda ham lalmi, ham sug'oriladigan ekinlar yetishgan[13:B.101].

Harduri etnografik guruhi masalasiga qisqacha to'xtalib o'tgan tadqiqotchilarning bir qanchasi ushbu etnonimning lug'aviy ma'nosiga qiziqishgan. M. Eshniyozov talqinicha, hind tilidagi har daurak (har joydan kelgan, turli yerdan qochib kelgan) birikmasiga forscha -i affiksi qo'shilgan: har dauraki — hardaragi – hardari -harduri. Xalq izohida har -duri (duri -i – dara -i — daralik, joylik) – turli daralik, har xil kishilar uyushmasi. Demak, harduri – forscha so'z, dastlab territorial guruh nomi bo'lgan, so'ng etnonimga aylangan. Shu etnonimdan qishloq nomlari yuzaga kelgan[14:B.412-413].

Qashqadaryo vohasida G'uzor bekligidan tashqari yana bir qator beklıklarda harduri aholi guruhi vakillari yoki shu nomdagi aholi maskanlari mavjud bo'lib, Chiroqchi tumanida Harduri (Xo'shali va Taloqtepa qishloqlari orasida) bunga misol bo'la oladi. Biroq bu yerdagi Harduri qishlog'i aholisi o'zbek tilli bo'lib, o'zbeklarning asosan uz urug'iga mansub bo'lishgan[15:B.258]. Aytishlaricha, qishloqning shunday atalishi esa bu yerda uz, achamayli, gala, qo'ng'irod kabi bir necha o'zbek urug'i aralash yashaganligi tufayli XX asr boshlarida paydo bo'lgan. Bungacha ushbu qishloq Ashur-beka deb atalgan. Harduri qishlog'i nomiga to'xtalgan T.Nafasovning yozishicha, Chiroqchidagi Harduri qishlog'i aholisi tojik tilini bilmaydi[16:B.413]. Qashqadaryo vohasining yuqori qismida – Shahrisabz tumani aholisi orasida ham "harduri" so'zi etnografik guruh nomi sifatida saqlanib qolgan. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, Quyi Qashqadaryoda, ayniqsa, Qarshi, Koson, Kasbi tumanlarida bu etnonim umuman uchramaydi. Ushbu etnonim bilan bog'liq yozma manba ma'lumotlari va etnografik materiallarga Buxoro amirligining markaziy hududlari – Buxoro, Samarqand, Karmana, Jizzax viloyatlari hududlarida ham duch kelinmaydi.

Harduri etnografik guruhiga aloqador ma'lumotlar asosan G'uzor bekligi va Surxon vohasi bilan bog'liqdir. Harduri etnografik guruhining katta qismi Boysun va G'uzor oralig'idagi tog'lik hududlarda yashab, 1924-1925-yillarda ularning soni 8400 kishini tashkil etgan. XX asr birinchi yarmida Surxondaryo viloyatining asosan Boysun, Sariosiyo va Sherobod tumanlarida harduri etnik guruhi yashab, ular boshqa aholi guruhlariga nisbatan kamchilikni tashkil etishgan. Harduri Sariosiyo tumanidagi guzar (Sharg'un); Oltinsoy tumanidagi guzar (Sina) nomi sifatida uchraydi. Shuningdek, Surxon vohasida Machay-daryo vodiysi (Sherobod-daryoning yuqori qismi)da hardurilar 2 ta qishloqda – Ho'jadayak va Yuqori Machay (yoki Katta-qishloq)da istiqomat qilishgan. B.X.Karmishevaning yozishicha, XX asr birinchi choragida Xo'jadayakdagi hardurilar 50 xo'jalikdan iborat bo'lishgan[17:B.63]. O'sha kezlarda Yuqori Machayda 300 xo'jalikdan iborat aholi yashab, harduri guruhi vakillari ushbu xo'jalikning yarmini, o'zbeklarning "turk" deb ataluvchi urug'i vakillari esa qolgan yarmini tashkil etishgan. Bu qishloqdagi hardurilar ushbu "turk"larning ta'sirida doimiy o'laroq o'zbek tilida so'zlashishga o'tishgan va o'zlarini "o'zbek hardurilar" deb yuritishgan. Shuningdek, bu yerda ular o'zbek-chig'atoylar, ya'ni o'zbeklarning "chig'atoy" deb nomlanuvchi guruhi bilan aralasha borganlar.

Boysun tumanidagi Harduri-qishloq deb atalgan aholi maskani vakillari o'zlarining kelib chiqishini Boshchorvog' – Machay tog'laridagi Kichi-Uradaryoning yuqori havzasida qishloqlar turkumi bilan bog'laganlar[18:63]. Bundan ko'rinadiki, Boysun hardurilari o'zlarining kelib chiqish negizini G'uzor tumani hardurilariga borib taqashgan. XX asr birinchi choragida Boshchorvog'da tojik-hardurilar ko'pchilikni tashkil etgan bo'lib, ushbu qishloqlar turkumining bir qismi o'zbeklarning turk guruhidan iborat bo'lgan. Bu paytda Boshcharvog' qishloqlari aholisi 1200 ta xo'jalik bo'lgan[19:B.63].

XX asr o'rtalarida Surxon vohasida etnografik izlanishlar olib borgan chog'ida B.X. Karmisheva birvaqtlar Denov bekligiga qarashli bo'lgan Taroqli qishlog'ida harduri aholi guruhi borligiga guvoh bo'lgan. Bu qishloq Harduri-qishloq nomi bilan tanilib, 1926-yilgi aholi ro'yxatida bu yer aholisi o'zbeklar sifatida qayd etilgan.

B.X.Karmishevaning yozishicha, Harduri-qishloq yoki Harduri-soy Maland daryosi (To'palang-daryoning o'ng tarmog'i)da joylashgan bo'lib, ularning Machay hardurilari bilan aloqasi aniqlanmagan. Shu bilan birga, "harduri" atamasi bu yerda ham "har yerdan kelganlar" deb talqin qilingan. Shuningdek, bu yerning mahalliy aholisi "qurama" so'zini shu ma'noda ishlatishgan[20:B.64]. Yaqin yillarda Surxon vohasida etnografik izlanishlar yuritgan tadqiqotchilar ham Sheroboddaryoning yuqori qismida Machay qishlog'ida o'zbek-chig'atoylari turklar va hardurilar bilan birgalikda yashashini qayd etishgan.

Gazimalik tog' tizmasida joylashgan tojiklar gazmaliklilar, Vorzob havzasidagilar varzobliklar O'zbekistonning janubiy mintaqalarida yashovchi lokal etnografik guruh hisoblanadi. Qashqadaryo vohasidagi kabi Surxon vohasida ham hardurilar mintaqaning qadimiy mahalliy etnografik guruhlaridan biri bo'lib, ular asosan tojik va o'zbek tillarida so'zlashganlar.

Surxon-Sherobod vodiysidagi lokal-hududiy birliklarga o'zining etnik nomiga ega bo'lmagan, yashab turgan hududi nomi bilan ataluvchi boysuni, machayi, voxshivori, sinachi, ushori, darbandi, sayrobi, poshxurti, vandobi kabi etnolokal birliklar[21:B.90] orasida harduri aholi guruhi o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turib, ularda turkiy (o'zbek) elementlari ko'proq saqlangan. Ma'lumki, ushbu etnolokal birliklarda ko'pincha til jihatdan bilingvizm hodisasi kuzatiladi, ya'ni ular o'zbek va tojik tillarida baravar so'zlashadilar[22:B.155-156]. O'ziga xos geneonimlariga ega bo'lib, ular faqat toponim, oronim, gidronim va antroponimlar asosida tashkil bo'lgan ichki bo'linish tarzida tarkib topgan bo'lib, qondosh-urug'chilik tizimiga asoslanmagan. Urug'-qabila nomiga ega bo'lgan o'zbeklar quyidagi urug'-qabilalarni tashkil etdilar: a) qo'ng'iro't; b) turk; v) yuz (juz); g) kam sonli urug'-qabilaga bo'linganlar. Oxirgi guruh qabilalariga quyidagi urug'lar kiradi: qatag'on, elbegi, do'rmon, qora tamg'ali, turkman, qovchin, kenagas, qutchi, qoraqalpoq, batosh, xitoy, harduri, olachizm, arab, chupak, qatori, gov, qoqixo'r, sholikor[23:B.24,26].

Xullas, G'uzor bekligi mahalliy aholisi tarixiga harduri etnografik guruhi misolida qisqacha nazar tashlaganimizda ularning beklilik aholisining muhim bir qismini tashkil etganligi, manbalarda tojik aholi deb qayd etilsa-da, ikkita tilda – tojik va o'zbek tillarida so'zlashib, ularning so'zlashuv muloqotida bilingvizm (ikki tillilik) ustuvorlik qilganligi ma'lum bo'ladi. Ular tarqalgan hududlar asosan Qashqadaryo vohasining janubi-sharqiy qismi – Surxon vohasining shimoliy va markaziy qismlaridagi tog'lik hududlar sifatida bilingan. XX asr boshlarida ushbu etnonim bilan bog'liq bir qator joy nomlari yozma manbalarda qayd etilishi bilan birga bugungi kunda ham ushbu viloyatlarda Harduri so'zi etnotoponim o'laroq saqlanib qolganligi ko'zga tashlanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Эшние'зов М. Шеваи хардури. – Душанбе, 1967. (тожик. тилида).
2. Кармишева Б.Х. Очерки этнической истории южных раёнов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным). – Москва: Наука, 1976.
3. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – Toshkent, 2009.

4. Doniyorov A., Bo'riyev O., Ashirov A. Markaziy Osiyo halqlari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Yangi nashr, 2011.
5. Qayumov A. XX asr boshlarida O'zbekiston hududida etnik holat. – Toshkent: "Adabiyot uchqunlari", 2015.
6. Tursunov S.N. va boshq. O'zbekiston tarixi va madaniyati – Surxondaryo etnografiyasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006; Tursunov S. Surxondaryo viloyati toponimlari. – Toshkent, 2008.
7. Naselenniye punkti Buxarskogo emirata (konets XIX – nachalo XX vv.) Materiali k istoricheskoy geografii Sredney Azii. Pod. Red. A.R. Muxammedjanova. – Tashkent: Universitet, 2001.
8. Naselenniye punkti Buxarskogo emirata (konets XIX – nachalo XX vv.) Materiali k istoricheskoy geografii Sredney Azii. Pod. Red. A.R. Muxammedjanova. – Tashkent: Universitet, 2001.
9. Мухаммад Содиқхоҷаи Гулшанӣ. Таърихи Ҳумоюн. Ба чоп тайёркунанда, мураттиб ва сарсухан Ҷӯрабек Нарзиев. – Душанбе, 2006.
10. Muhammad Sodiqhojai Gulshanī. Ta'rixi Humoyun.
11. Muhammad Sodiqhojai Gulshanī. Ta'rixi Humoyun.
12. Muhammad Sodiqhojai Gulshanī. Ta'rixi Humoyun.
13. Muhammad Sodiqhojai Gulshanī. Ta'rixi Humoyun.
14. Eshniyozov M. Shevai xarduri. – Dushanbe, 1967.
15. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi, – Toshkent, 2009.
16. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi., – Toshkent, 2009.
17. Кармишева Б.Х. Очерки этнической истории южных раёнов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным). – Москва: Наука, 1976.
18. Кармишева Б.Х. Очерки этнической истории южных раёнов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным). – Москва: Наука, 1976.
19. Кармишева Б.Х. Очерки этнической истории южных раёнов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным). – Москва: Наука, 1976.
20. Кармишева Б.Х. Очерки этнической истории южных раёнов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным). – Москва: Наука, 1976.
21. Qayumov A. XX asr boshlarida O'zbekiston hududida etnik holat. Toshkent: "Adabiyot uchqunlari", 2015.
22. Qayumov A. XX asr boshlarida O'zbekiston hududida etnik holat. Toshkent: "Adabiyot uchqunlari", 2015.
23. Abirov V., Mamayusupov I. Janubiy O'zbekistonning etnik qatlamlariga doir. O'tmishga nazar, 7- son, 3- jild. Toshkent, 2020.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).